



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'YOYALAR



ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR – O'ZBEK ADABIYOTINING YORQIN YULDUZI VA BUYUK BOBURIYLAR SULOLASI ASOSCHISI

Sino Habibov

moaaz2277@icloud.com

Annotatsiya. Zahiriddin Muhammad Bobur o'zbek adabiyotidagi muhim shaxs sifatida nafaqat shoir va adib, balki olim, sarkarda va davlat arbobi sifatida ham muhim o'rin tutadi. Uning "Boburnoma" asari jahon adabiyotidagi noyob yodgorlik bo'lib, Temuriylar tarixi, o'sha davr madaniyati va geografiyasi haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Bobur Hindistonda asos solgan sulola 350 yildan ortiq hukmronlik qilib, mamlakatda adabiyot, san'at va shaharsozlikni yuksaltirdi. Uning she'riy merosi, xususan, Vatan sog'inchi va insoniy tuyg'ular aks etgan g'azal va ruboilylari o'zbek adabiyotidagi o'ziga xos lirikadir. Maqola Boburning hayoti, ijodi va tarixdagi o'rmini yoritadi.

Kalit so'zlar: Zahiriddin Muhammad Bobur, Boburnoma, o'zbek adabiyoti, Buyuk Boburiylar, Vatan sog'inchi, Temuriylar, Hindiston tarixi, she'riyat.

Abstract. Zahiriddin Muhammad Babur is a prominent figure in Uzbek literature, recognized not only as a poet and writer but also as a scholar, military leader, and statesman. His masterpiece, Baburnama, is a unique monument in world literature, providing valuable insights into the history of the Timurids, the culture, and geography of his era. The dynasty Babur founded in India ruled for over 350 years, fostering advancements in literature, art, and urban development. His poetic legacy, particularly his ghazals and rubais reflecting longing for homeland and human emotions, represents a distinctive lyricism in Uzbek literature. This article explores Babur's life, literary contributions, and historical significance.

Keywords: Zahiriddin Muhammad Babur, Baburnama, Uzbek literature, Great Mughals, homeland longing, Timurids, Indian history, poetry.

Аннотация. Захиридин Мухаммад Бабур – выдающаяся фигура узбекской литературы, известный не только как поэт и писатель, но и как ученый, полководец и государственный деятель. Его произведение «Бабурнама» является уникальным памятником мировой литературы, предоставляющим ценные сведения об истории Темуридов, культуре и географии того времени. Основанная Бабуром династия в Индии правила более 350 лет, способствуя развитию литературы, искусства и градостроительства. Его поэтическое наследие, особенно газели и рубаи, проникнутые тоской по родине и человеческими чувствами, представляет собой уникальную лирику в узбекской литературе. Статья посвящена жизни, творчеству и историческому значению Бабура.

Ключевые слова: Захиридин Мухаммад Бабур, Бабурнама, узбекская литература, Великие Моголы, тоска по родине, Темуриды, история Индии, поэзия.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATION G'ÖYALAR



Asosiy qism

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530) o‘zbek adabiyoti va tarixida o‘chmas iz qoldirgan buyuk shaxsdir. U nafaqat shoir va adib, balki olim, sarkarda va “Buyuk Boburiylar sulolasasi” asoschisi sifatida ham tanilgan. Bobur 1483-yil 14-fevralda Andijonda, Farg‘ona hokimi Umarshayx Mirzo va chingiziylar avlodidan bo‘lgan Qutlug ‘Nigor Xonim oilasida tug‘ilgan. Uning ismi forscha “babr” (yo‘lbars) so‘zidan olingan bo‘lib, kuchi va jasoratini ifodalaydi. Bobur otasi orqali Amir Temur avlodiga, onasi orqali esa mo‘g‘ul xoni Yunusxon nasliga mansub edi. Bobur yoshligidan saroyda sifatlari ta’lim oldi, ammo 1494-yilda otasining fojiali o‘limidan so‘ng, 12 yoshida Farg‘ona taxtiga o‘tirdi. Bu davrda Temuriylar o‘rtasida taxt uchun qattiq kurash avj oldi.

Bobur amakisi Sulton Ahmad Mirzo va ukasi Jahongir Mirzo bilan raqobatlashdi. U ukasi bilan murosaga kelib, Farg‘onani ikkiga bo‘lib, yarmini Jahongir Mirzoga berdi, o‘zi esa Samarcand uchun kurashga kirishdi. Biroq Shayboniyxonning harbiy kuchi oldida mag‘lub bo‘lib, Samarcand va Andijonni yo‘qotdi. 1504-yilda janubga yo‘l olib, Kobulda hokimiyat o‘rnatdi. 1519–1525-yillarda Bobur Hindistonni zabit etishga qaratilgan bir qator janglar olib bordi. 1526-yilda Panipat jangida Hindiston sultoni Ibrohim Lo‘dini, 1527-yilda esa Chitora hokimi Rano

Sangoni mag‘lub etdi. Bu g‘alabalar Boburga Hindistonda o‘z sulolasiga asos solish imkonini berdi.

Uning sulolasi 350 yildan ortiq hukmronlik qilib, Hindistonni adabiyot, san’at va shaharsozlik sohasida yuksaltirdi. Bobur davrida mamlakatda ma’naviy-ruhiy muhit shakllandi, uning avlodlari bu an’analarni davom ettirdi. Hind olimi Javoharla’l Neru Boburning Hindiston madaniyatiga kata ta’sir ko‘rsatganini ta’kidlaydi.

Boburning adabiy merosi o‘zbek adabiyotidagi muhim xazinadir. Uning “Boburnoma” asari jahon adabiyotidagi noyob yodgorlik bo‘lib, Temuriylar tarixi, o‘sha davr madaniyati, geografiyasi va hatto o‘simliklar olami haqida qimmatli ma’lumotlar beradi. Asar o‘zbek (chig‘atoy) tilida yozilgan bo‘lib, 25 dan ortiq tilga tarjima qilingan. Unda Bobur o‘z hayoti, janglari, yurishlari va zamondoshlari haqida samimiy hikoya qiladi. “Boburnoma” avtobiografik xususiyatga ega bo‘lib, sharqona hikmatlar va nasihatlar bilan boyitilgan. Masalan, “har kimdan yaxshi qoida qolgan bo‘lsa, unga amal qilmoq kerak” kabi so‘zlar uning donishmandligini ko‘rsatadi.

Boburning she’riy merosi ham katta ahamiyatga ega. Uning 400 dan ortiq she’rlari, jumladan, 119 g‘azal va 231 ruboysi “Qobul devoni” va “Hind devoni”ga jamlangan. She’rlari Vatan sog‘inchi, insoniy tuyg‘ular, xiyonat va taqdir haqida bo‘lib, sodda va samimiy uslubda yozilgan. Bobur nasrda ham salmoqli ijod qilgan. Uning “Mubayyin” asari islom shariatining asoslarini tushuntirsa,

“Aruz haqida risola” sharq tilshunosligida muhim o‘rin tutadi. Bu risola Alisher Navoiy an’analalarinidavom ettirib, she’riy vazn tizimini rivojlantirgan. Bundan tashqari, Bobur “Xatti Boburiy” grafikasi asosida Qur’oni karim va shaxsiy asarlarini qayta yozdirgan.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Bobur nafaqat o‘zbek, balki jahon tarixida muhim shaxsdir. Uning Hindistonda qoldirgan merosi, adabiy va ilmiy faoliyati bugungi kunda ham o‘rganilmoqda. Andijonda uning haykali o‘rnatalgan, har yili 14-fevralda tavallud kuni keng nishonlanadi. Bobur asarlari asosida Oybek, Pirimqul

Qodirov, Xurshid Davron kabi adiblarning qissa va romanlari, shuningdek, xorijiy yozuvchilarning asarlari yaratilgan. Uning qizi Gulbadan-begim “Humoyunnom” asarini yozib, otasining yo‘lini davom ettirdi.

Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zbek millatining faxri, adabiyot va tarixdagi yorqin yulduz sifatida abadiy yashaydi. Uning hayoti va ijodi kelajak avlodlar uchun ibrat va ilhom manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. 2. 3. U.Erskin. Hindistonda Bobur davlati (Ingliz tilidan G‘.Sotimov tar.). — T.: 1997:
- R.Sharma. Boburiylar sultanati (Ingliz tilidan G‘.Sotimov tar.).. -T.: 1999.
- Abdulahad Muhammadjonov, Abdurashid Abdugafurov, O‘zME. Birinchi jild.
Toshkent, 2000-yil

